

## NEMIS TILIDA HAYVON VA O'SIMLIKLAR NOMLARI MAVJUD BO'LGAN PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQ FAOLIYATIDA QO'LLANILISHI

**Raximova Malika Sultonovna**

Urganch Davlat universiteti tayanch doktoranti

### ARTICLE INFO.

### Abstract:

**Keywords:** frazeologiya,  
paremiologiya, parema, zoonim,  
fitonim

Ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologik va paremiologik birliklarda hayvon va o'simliklar nomlarining ishlatilishi, ular ifodalayotgan ma'no misollar orqali ochib berilgan

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Dunyoda mavjud bo'lgan barcha xalqlarda og'zaki holda tildan tilga o'tib kelgan paremiologik birliklar ko'p uchraydi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Bizning taxminimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqeaning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayot lavhasiga guvoh bo'lgan dono odamlardan biri ko'rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnamo g'oyani o'ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo'lishi kerak. Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan.

Hayvon va o'simliklar nomlari mavjud bo'lgan paremiologik birliklar asosan nutq faoliyatida kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladi va asosan insonlar orasida muloqotda yanada tasirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Bunda, asosan, hayvon nomlarining semantik tuzilishiga alohida e'tibor beriladi. Olimlar o'z ishlarida hayvon komponentlarini frazeologik birliklar tarkibiga kiritish uchun turli atamalardan foydalanadilar. Masalan, L.N. Gishkayeva frazeologik birlikning *zoonimik*

*komponenti* atamasini qo'llasa<sup>1</sup>

A.O. Kubasova *zooleksema* tushunchasi asosida ish ko'radi<sup>2</sup> S.A. Androsova hayvon nomlari komponentlarini *zoonimlar* deb ataydi<sup>3</sup>

Nemis tilshunosligida Annelies Beyer o'zining „*Wortschatz in deutschen Sprichwörtern im Bereich des Dorfes*“<sup>4</sup> asarida o'simliklar va o'simlik qismlari mavjud bo'lgan maqollarning semantik hamda lingvistik tahlilini keng yoritib bergan.

Barcha guruh tadqiqotchilari yangi muammolarga e'tibor qaratadi, paremiologiya va frazeologiya sohasida tadqiqot olib borayotgan Wolfgang Mieder (Vermont universiteti), kim o'n yillar davomida paremiologiya sohasiga o'zini bag'ishlagan va o'zining "Neue Zeiten, neue Sprichwörter"<sup>5</sup> maqolasida bir qancha muammolarni yoritib bergan. Nemis tilida so'zlashadigan mamlakatlarda Angliya-Amerika ta'siri ostida yaratilgan yangi, zamonaviy maqollar /anti-maqollar bo'yicha zamonaviy maqollarning paremiografiyasi va paremiologiyasi o'rganilmoqda va yaratilmoqda. Masalan, *Mal ist man der Hund, mal ist man der Baum*). Hozirgi zamonning (anti) maqol va maqollarida u zamonning nasihati va hikmatini kamroq, balki hozirgi holatga munosabat va hazilkash ohangga moyillikni bildiradi.

Hozirgi kunda nemis tilidagi frazeologizmlar va maqollarda ingliz tilining ta'siri juda katta va zamonaviy maqollar shu ta'sir ostida yartilmoqda. Masalan, *etwas mit Füßen treten, vor die Hunde gehen, eine Lawine/ Welle lostreten - biror narsani oyoq osti qilmoq, itlarga bormoq, ko'chki/to'lqinni bo'shatishdir*.

Tilda frazeologik birliklar o'zlarining tuzilishiga ko'ra nihoyatda rang-barang olamni o'zida namoyon eta oladi. Ayniqsa, ularning tarkibiy elementlari o'rtasidagi semantik bog'lanishlar turlicha munosabatlarni ifodalashi orqali ajralib turadi. Bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so'zlar o'zlarining ma'no mustaqilligini ma'lum darajada, ya'ni kuchli yoki kuchsiz darajada saqlab qoladi.<sup>6</sup> Masalan, hayvon, qush, baliq, hasharot va sudralib yuruvchilar nomlarining tarkibiy qismini o'z ichiga oladi va insonlarga xos xususiyatlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Zoonim komponentli frazeologik birliklar inson shaxsiyatining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Bunday birliklar turli darajadagi uyg'unlik va semantik yaxlitlikka ega bo'lgan birikmalar bo'lib, hayvonning xatti-harakati, odatlarini kuzatish tajribasiga asoslanib, inson tomonidan berilgan sifat va

<sup>1</sup> Гишкаева Л. Н. Фразеологизмы с компонентами-зоонимами и фитонимами в современном пиренейском и мексиканском национальных вариантах испанского языка: автореф. дисс. ... к. филол. н. М., 2012. 20 с

<sup>2</sup> Кубасова А. О. Образная характеристика человека в румынском языке через сравнения с животными и зоометафоры (лексико-семантический анализ): автореф. дисс. ... к. филол. н. СПб., 2008. 8 с

<sup>3</sup> Андросова С. А. Объективация характеристики человека во французской арготической фразеологии: дисс. ... к. филол. н. Белгород, 2011. 220 с

<sup>4</sup> Gondek, Anna / Jurasz, Alina / Szczęk, Joanna (Hrsg.) (2018): Einblicke und Rückblicke: Beiträge zur deutschen Phraseologie und Parömiologie aus intra- und interlingualer Sicht. Bd. I. [Phraseologie und Parömiologie, Bd. 33], Baltmannsweiler: Schneider Verlag Hohengehren. 325 S. ISBN 978-3-8340-1854-0.

<sup>5</sup> Gondek, Anna / Jurasz, Alina / Szczęk, Jo-anna (Hrsg.) (2018): Einblicke und Rückbli-cke: Beiträge zur deutschen Phraseologie und Parömiologie aus intra- und interlingualer Sicht. Bd. I. [Phraseologie und Parömiologie, Bd. 33], Baltmannsweiler: Schneider Verlag Hohengeh- ren. 325 S. ISBN 978-3-8340-1854-0.

<sup>6</sup> Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон рухияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 2 (31). — Б. 65–79

xususiyatlarning boy to'plamini tasvirlashga qodir reaksiyalar, tashqi ko'rinish va boshqalarni anglatadi<sup>7</sup> Frazeologik birliklarning majoziy xususiyati uning so'zma-so'z ma'nosini o'zaro bog'lash orqali ochiladi. Bu hodisa so'zlovchilarning frazeologik birlik asosidagi tasavvurini ularning intellektual va umumiy ta'lim darajasiga, shuningdek, individual xususiyatlariga qarab turlicha idrok etishini ko'rsatadi<sup>8</sup>. Til belgilari tizimini o'rganishda milliy madaniyatning stereotiplari va me'yorlarini aniqlash, dunyoni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash dunyoni tushunish uchun muhimdir. Chunki, "uning o'ziga xos xususiyatlarini "g'ayriinsoniy" xususiyatlar bilan taqqoslash "inson xususiyatlarining me'yorlari" sifatida qabul qilinadi"<sup>9</sup>

Nemis xalqi „cho'chqa“ bilan bog'liq frazeologizm va paremiologik birliklarni omad keltiruvchi ma'nosida ishlatiladi va qo'llaniladi. Masalan;

- *im Dreck liegen wie ein Schwein*
- *dreckig wie ein Schwein*
- *glücklich wie ein Schwein*

O'simlik nomlari kelgan frazeologik birikmalar va paremlar nemis va o'zbek tillarida ham juda ko'p uchraydi va keng foydalaniladi. Bunda, asosan, tasvirlanayotgan o'simlikning o'ziga xos xususiyati, rangi, barchaga ma'lum bo'lgan nozik jihatlari hisobga olinadi. Misol uchun: *Qo'li gul* – ushbu ibora insonlarning ijobiy xarakterini tasvirlab, insonning go'zal narsalar yarata olishi, o'ziga xos qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu birikma, asosan, bog', oshxona va kasb-hunar ishlarida malakali insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari nemis tilidagi, „*Mein Klee ist mir lieber als Nachbars Weizen, Ein Grashalm macht keine Wiese*“ maqoli „*Qo'shni bug'doyidan bedamni afzal ko'raman, O't tig'i o'tloq qilmaydi*“ kabi tarjima qilinadi.

Yuqorida berilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki nemis va o'zbek tillarida hayvon, o'simlik nomlarining frazeologizmlar va paremlar tarkibida kelishi keng uchraydi. Bu orqali insonlar bilan bog'liq hodisa yoki xususiyatlar ifodalanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullaeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2647. – №. 1.
2. Sayfullayeva D. A. et al. Levels of activation the activities of students //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. – 2020. – C. 28-31.
3. Sayfullayeva, D., & Sharobiddinova, G. (2023). BO 'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O 'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(11), 48-51.
4. Sayfullayeva DA. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of

<sup>7</sup> Гукетлова Ф. Н. Зооморфный код культуры в языковой картине мира (на материале французского, кабардиночеркесского и русского языков): дисс. ... д. филол. н. / Ин-т языкознан. РАН. М., 2009. 8 с.

<sup>8</sup> Синельников Ю. Г., Андросова С. А. Образная основа характерологических фемининных фразеологизмов французского аргю (на материале фразео-тематической группы «Внешний облик человека») // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. 2009. № 4. С. 50.

<sup>9</sup> Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

students. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) № 10.2022. B-661-671

5. Olimov Q., Umatalieva K., Sayfullayeva D. THE IMPORTANCE OF COOPERATION AND INTERACTION OF THE FAMILY AND PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED PERSONALITY //ББК 74.6 С69 Печатается по решению редакционно-издательского совета БГПУ. – 2019. – С. 132
6. Sayfullayeva D. A. Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities //Eastern European Scientific Journal. Ausgabe. – 2017. – Т. 6. – С. 154-157.
7. Sayfullayeva D., Mo'minova D. DIDACTICAL PRINCIPLES OF LABOR EDUCATION //Academicia Globe: Inderscience Research journal. – 2021.
8. [https://majmua.tdpu.uz/files\\_new/17575\\_Kostyum%20kompozitsiyasi%20asoslari%20labaratoriya.pdf](https://majmua.tdpu.uz/files_new/17575_Kostyum%20kompozitsiyasi%20asoslari%20labaratoriya.pdf)